



CHARACTERISTICS OF ABU ALI IBN SINO'S CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF PHARMACOLOGY

Arslanova Rayxon Rajabbayevna

Assistant, Department of Pharmacology
Samarkand State Medical University
Uzbekistan, Samarkand

Begzod Kurbonbekovich Maxmudov

2nd-year student
Faculty of Dentistry, Samarkand State Medical University
Uzbekistan, Samarkand

Baxodir Utkirovich Razokov

2nd-year student
Faculty of Dentistry, Samarkand State Medical University
Uzbekistan, Samarkand

Usmanov Sherzod Shavkatovich

2nd-year student
Faculty of Dentistry, Samarkand State Medical University
Uzbekistan, Samarkand

ABOUT ARTICLE

Key words: Ibn Sina, pharmacology, drug forms, "Medical laws", medicine, simple and complex drugs, diseases.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: This scientific article is dedicated to our compatriot Abu Ali ibn Sina, who made a great contribution to the development of medicine, in the development of the science of pharmacology and in the treatment of patients. Even now, it is important that this medical information is preserved and serves as a guide for future generations. Abu Ali Ibn Sina's "Medical Laws" and the role of this work in the world medical science are incomparable

ABU ALI IBN SINONING FARMAKOLOGIYANI RIVOJLANTIRISHDA QO'SHGAN XISSASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Arslanova Rayxon Rajabbayevna

Farmakologiya kafedrasi assistenti
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
O'zbekiston, Samarqand

Begzod Kurbonbekovich Maxmudov

2-kurs talabasi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti stomatologiya fakulteti

O'zbekiston, Samarqand

Baxodir Utkirovich Razokov

2-kurs talabasi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti stomatologiya fakulteti

O'zbekiston, Samarqand

Sherzod Shavkatovich Usmanov

2-kurs talabasi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti stomatologiya fakulteti

O'zbekiston, Samarqand

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ibn Sino, farmakologiya, dori shakllari, Tib qonunlari, oddiy va murakkab dorilar.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola tibbiyotning rivojlanishiga katta xissa qo'shgan vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino farmakologiya fanining rivojlanishida va bemorlarning davolashda dorilarning qo'llash usullari, dori shakllariga bag'ishlangan. Hozirda ham bu imiy, tibbiy ma'lumotlar saqlanib qolganligi va

kelajak avlodga qo'llanma bo'lib xizmat qilayotganligi myhim ahamyatga ega hisoblanadi. Abu Ali ibn Sino bobomizning Tib qonunlari va bu asarning jahon tibbiyot ilmida tutgan o'rni benihoyat beqiyosdir.

ХАРАКТЕРИСТИКА ВКЛАДА АБУ АЛИ ИБН СИНА В РАЗВИТИЕ ФАРМАКОЛОГИИ

Райхон Раджаббоевна Арсланова

Ассистент кафедры фармакологии

Самаркандский государственный медицинский университет

Узбекистан, Самарканд

Бегзод Курбонбекович Махмудов

Студент 2 курса стоматологического факультета,

Самаркандский государственный медицинский университет

Узбекистан, Самарканд

Баходир Уткирович Разоков

Студент 2 курса стоматологического факультета

Самаркандский государственный медицинский университет

Узбекистан, Самарканд

Шерзод Шавкатович Усманов

Студент 2 курса стоматологического факультета

Самаркандский государственный медицинский университет

Узбекистан, Самарканд

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ибн Сина, фармакология, лекарственные формы, «Медицинские законы», медицина, простые и сложные лекарства, болезни.

Аннотация: Данная научная статья посвящена нашему соотечественнику Абу Али Ибн Сине, который внес большой вклад в развитие медицины, науки о фармакологии и лечении пациентов. Даже сейчас важно, чтобы эта медицинская информация сохранялась и служила руководством для будущих поколений. «Медицинские законы» Абу Али Ибн Сины и роль этого труда в мировой медицинской науке являются неоценимыми.

Kirish. O‘zbekistonning buyuk kelajagini taminlash uchun o‘rta asrlarda Sharq olamida yashabijod etgan eng atoqli olimlari biri Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosini chuqur muhokama qilish va aniglash, uning zamonaviy tibbiyotda tutgan o‘rni va rolga baho berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Tibbiyotning rivojlanishiga katta xissa qo‘shgan bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino bemorlarni davolashda dorilarning vositalarining qo‘llanilishi, dori shakllarini turlari hozirda ham tibbiyot xodimlariga qo‘llanma bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugun dunyoda tibbiyot va farmatsiyaning taraqqiyotiga Ibn Sino o‘zining g‘oyat katta ta‘sirini o‘tkazgan. Ibn Sino yashab, faoliyat ko‘rsatgandavrda mustaqil tibbiy yordam ko‘rsatish yaxshi bo‘lmagan, bobokalonimiz tabiblikdan endigina ajralib mustaqil ravishda shakllana boshlagan edi. Vaqt o‘tgan sari retseptlar tarkibi va u uning tuzulishi shuningdek dori vositalarning tayyorlash texnologiyasining haqida o‘z fikrlarini yozib qoldirganlar. Ayniqsa tibbiyotning asosiy fanlardan biri bo‘lgan farmakologiya fanining rivojida O‘rta Osiyoning buyuk hakimi Abu Ali ibn Sinon o‘z hissasini qo‘shganlar. Abu Ali ibn Sino bobomiz o‘zining ko‘pgina shu jumladan Tib qonunlari || , Kitob ush-shifo || , Kitobi al-kalbiya || kabi asarlarida o‘sha davr tibbiyotida qo‘llanilgan dori moddalari tibbiyot amaliyotida qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlarini batafsil yoritib berganlar. Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asosiy merosi „Tib qonunlari“ bo‘lib, bu kitob o‘sha davrgacha tabobat borasidagi eng mukammal qo‘llanma hisoblangan. Bu kitobda tibbiyotning barcha sohalari (bemorda yuzaga keladigan kasalliklar sababi, kasallikning belgilari, ularni aniqlash, davolash va oldini olish) bo‘yicha ilmiy –tibbiy fikrlar to‘liq yoritilgan. Bundan tashqari allomamiz farmakologiyaga oid moddalarni ikki bo‘limdan iborat ekanligini batafsil aytganlar. Birinchisi oddiy moddalar, ikkinchisi murakkab moddalar va ularni tayyorlash usullari to‘g‘risida ma‘lumotlar berganlar. Ibn Sino dori moddalariga bag‘ishlangan she‘riy Urjuza fit-tibb || asarida dorilarni zarur bo‘lgan taqdidragina qo‘llanish kerakligini yana bir bor ta‘kidlab o‘tganlar. Ibn Sino ma‘lumotlari, kasalliklarni davolash va oldini olish uchun shu bilan birga kasallikni aniqlashga so‘zsiz o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot usullari. Tadqiqotchilar bildirgan yagona fikrlariga ko'ra Ibn Sinoning tibbiyot asarlaridan eng muhimi Tib qonunlari || bo'lib, asar beshta mustaqil kitoblardan iborat. Kitoblarning ikkinchi va beshinchisida dorishunoslikka oid ma'lumotlar yozilgan. Shunday qilib, ikkinchi kitobda 750 dan ortiq dori vositalarining ta'sir xususiyatlari berilgan, ularning tayyorlash va qo'llash usullari ko'rsatilgan. Beshinchi kitobida esa dori moddalarni oddiy va murakkab dorilarga bo'lib, shulardan 270 tasi murakkab dorilar ekanligi etirof etilgan. Yana shundayma'lumotlar mavjudki 64 ta yurak kasalliklarida ishlatiladigan dorilarni ta'sir qilish usullari ko'rsatilgan. Ibn Sino shu bilan birga kimyoviy moddalar simob, margumush, mis, oltingugurt, kumush va ularning birikmalaridan foydalanishni ilk bor tibbiyot amaliyotida tadbiq etilgan. Yana ilmiy tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, XI asrda tib qonunining asoschisi hisoblangan Abu Ali ibn Sino bobomiz zaxmni davolash uchun kimyoviy moddalardan biri bo'lgan simobni tavsiya qilganlar. Zaxm kasalligini davolashda hozirgi kunda ham simob, mishyak moddalari zaxmga qarshi qo'llanilib kelinmoqda. Shuning uchun Ibn Sino bobomiz Ovrupo shifokorlaridan 400-yil oldin zaxm kasalligini simob bilan davolanishini yoritib berganlar. Ibn Sino o'z davrida antibiotiklarga o'xshash moddalarning kelajakda katta o'rin tutishini bashorat qilganlar. Bundan tashqari Abu Ali ibn Sino bobomiz 900 xil shifobaxsh o'simliklardan dorilar tayyorlab, tabobatda qo'llaganlar. Olib borilga ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki mumiyoni buyuk alloma Abu Ali ibn Sino davridan boshlab hamma tabiblar turli kasalliklarni davolashda eng shifobaxsh dori sifatida ishlatishgan. Ibn Sino Tib qonunlari || ning 2 jildida mumiyotog' mumidir, deyilgan. Tog' mumida suyuq va quyuq bitumlar aralashmasining hossalari mavjuddir, lekin mumiyoning bitumdan farqi shuki, u organizm uchun foydalidir. Mumiyot oson suyuladi va teri yuzasidan tanaga singadi. Mumiyot ichilganda va teriga surtilganda, suyak singandan, chiqqandan keyin paydo bo'lgan kuchli og'riqni keskin kamaytiradi; Tib qonunlarida || yozilishicha, tog' mumiyosi miqdoriga qarab o'pkadan qon ketishini, yo'tal va yurak bezovtaligini bartaraf qiladi, uni hazm a'zolari, me'da, jigar, tomoq kasalliklarini davolashda va hiqichoq tutganda qo'llash mumkin. Siydik yo'li va qovuq yarasida, siydiktutilganda yaxshi naf beradi. Mumiyot xotirani tiniqlashtiradi, me'dani mustahkamlaydi, nafasni engillashtiradi. Ibn Sino ta'biri bo'yicha, mumiyot murakkab dori bo'lib, foydali, ta'sir kuchi ham turli-tuman vamurakkabdir deb ta'kidlaganlar. Ibn Sino bobomiz nafaqat farmakologiya faniga undan tashqari tibbiyot va farmasiyaning taraqqiyotiga ham o'z hissalarin o'shganlar. U kishining 280 dan ortiq asarlari bo'lib ulardan 40 tasi tabobat ilmiga asoslangan bo'lib dorivor o'simlik mahsulotlarining yuqori sifatli bo'lish mezonini va unga qo'shiladigan talabni aniqlash bilan farmakognoziya faniga hamasos solganlar. Uning dorivor o'simliklarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash usullari hozirgi dorishunoslikdagi usullarga juda yaqindir. Tabiiy dorilar bilan bir katorda Ibn Sino birinchilardan bo'lib kimyoviy usulda tayyorlangan dorilarni ham ishlatgan. Kasallikning turiga qarab avval

oddiy so'ng murakkab tarkibli dori bilan davolaganlar. Eng muhimi, u oziq- ovqatlarning shifobaxsh ta'siriga katta ahamiyat berib, davolashni shunday mahsulotlardan

(meva, sabzavot, sut, go'sht vahokazo) boshlaganlar. Dori tayinlashda bemorning mijozi (issiq, sovuq, ho'l, quruq), yoshi, iqlim sharoitini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydilar. Shuning uchun mana shu qoldirilgan ilimga boy ma'lumotlari hozirda ham keng qo'llaniladi.

Muhokama va natijalar. Olib borilgan muhokama va natijalar shuni ko'rsatadiki, Ibn Sinoning tabobat sohasida qilgan ishlari o'sha davr tabobatini bir necha davrga ilgarilatdi va ayrim sohalarda hatto hozirgi zamon tibbiyotiga yaqinlashtirdi desak ham bo'ladi. Abu Ali ibn Sino qisqa ammo mazmunli hayotida, yaratgan asarlari ayniqsa — Tib qonunlari II, xususan dorishunoslikni rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi. — Tib qonunlari II ning amaliy qismining ikkinchisi kasallarga dori va ovqat berib dardni tuzatish haqida dorilar tarkibiy qismi haqida, og'riqni to'xtadigan dorilar haqida, dorilarning ishlatilishi haqida, kasalliklarni davolash va ularning belgilari haqida alohida to'xtalib o'tib o'z taklif maslahatlarini bayon etganlar. Yangi dori vositalarini tibbiyot amaliyotida davolash uchun ishlatiladigan ular ma'lum bir miqdorda ya'ni dozada olinadi. Chunki dori vositalarining ta'siri foyda berishi har tomonlama ularning dozasiga bog'liqligini keng nomoyon etganlar. Yuqoridagilardan shuni aytish mumkinki, ya'ni har qanday dori-darmonlarni tayyorlashda ma'lum qoidalarga, ayniqsa gigiyenik tozalikka, dorilarning tayyorlash texnologiyasiga, qo'shilayotgan mahsulotlarning miqdoriga tayyor holgakeltirilgan mahsulotni qo'lash uchun ma'lum miqdor ya'ni dozalariga bo'lishni ko'rsatibotganlar. Bundantashqari allomamiz dorilarning tibbiyotda qo'llanish shakllari aytib o'tgan bo'lsalar, hozirda ham zamonaviy tibbiyotda qo'llanilayotgan dori shakillari: shu jumladan qattiq dori shakillari (kapsulalar, tabletkalar, kukunlar, drajelar, tibbiy yig'malar), suyuq dori shakillardan (eritmalar, emulsiyalar, nastoykalar, damlamalar, qaynatmalar) va yumshoq dori shakillardan (malhamlar, pastalar, shamchalar) ko'rsatish, shu bilan birga dorilarni organizmga parenteral ya'ni igna orqali yuborish usullari bir necha asr avval ham qo'llanilgan va ularni qo'llash to'g'risidagi fikrlar bildirilgan. Shu bilan birga dori vositalarini organizmga yuborish yo'llari ya'ni dori moddalarini organizmga yuborish, ularning so'rilishi, oqsillar bilan bog'lanishini, taqsimlanishi, o'zgarishi (metabolizmi) va organizmdan chiqish jarayonlarini, dori moddalarining ko'rsatadigan ta'sirini, ta'sir kuchi va ta'sir mexanizmini o'rganish ahamiyatga ega deb ta'kidlaganlar. Dori moddalarining so'rilish tezligi, kuchi va ta'sir muddati ularning organizmga qaysi yo'l bilan yuborilganiga bog'liq bo'ladi deb ta'kidlaganlar. Shundaydorilar borki og'iz orqali qabul qilinsa hech qanday tasir ko'rsatmaydi, boshqa yo'l bilan (inyeksiya) yuborilsa ijobiy tasir ko'rsatadi. Shunday holatlar bo'lishi mumkinki bir dori vositasi turli yo'llar bilan yuborilganda organizmga turlicha tasir ko'rsatadi. Shuning uchun har bir dori vositasini organizmga yuborilganda ijobiy

ta'siri namoyon bo'ladigan yo'lni to'g'ri tanlash lozim. Ibn Sino dorilarni organizmga kiritish yo'llari, dori moddalari oshqozon-ichak yo'li orqali yuborilishini yoki peshob yo'llaridan kiritish haqida ma'lumotlar nazm tizimida berganlar. Ibn Sino bobamiz bemorlarni davolashda 3 narsaga - tartib (parhez), dorilar bilan davolash va turli tibbiyotadbirlarni qo'llash (qon olish, banka qo'yish, zuluk solish, huqna va hokazo)ga ahamiyat berish

kerakligini aytadilar. Kasallikni davolashda ovqatlanish, ya'ni parhezni muhim omillardan deb hisoblaydi va har bir kasallik uchun o'z ovqatlanish tartibini beradi. Chunonchi, jigar kasalliklarida ko'proq mayiz, anjir, anor suvi iste'mol qilishni buyuradi. Bu esa bunday kasalliklarni hozirgi glyukoza va insulin bilandavolash usullarining qadimgi ko'rinishidir. Kasallikni davolashda Ibn Sino shaxsiy gigiyena, uyqu vajismoniy mashqlarning ahamiyati kattaligini uqtirganlar. Bundan tashqari o'z davrining Ibn Sino o'tkirdiagnosti edilar. Uning ba'zi tashhis usullari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Perkussiya (a'zoga urish orqali diagnoz qo'yish)ni, xususan, assit va meteorizmni farqlashda, istisqoni aniqlashda (qoringasekin urish orqali) o'sha paytlarda qo'llaganlar.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Ibn Sinon bobomiz tibbiyotda shu asnosida farmakologiya

fanining rivojida katta hissalarini o'shganlar. Allomamiz to'plangan har bir ma'lumotl barcha insonlarnafaqat hamma sohadagi bilim egalari shu jumladan tibbiyot sohasida muhim va buyuk ahamyatga egadir. Shu bilan birga yana shuni aytish lozimki, bemorlarni davolashda turli xil dori vositalardan, dorilarning organizmga yuborish usullaridan foydalanilganlar. Abu Ali ibn Sinoning fikrlari hozirda ham zamonaviy tibbiyotda rivojlanishida, ayniqsa xalq tabobatida muhim roli o'ynaydi. Shu bilan birga shifokorlarga va dorishunoslar uchun asosiy ma'lumot sifatida ham o'z ahamiyatiga egadir. Bunga uning „Tib qonunlari va bu asarning jahon tibbiyot ilmida tutgan o'rni va qozongan shuhrati yorqin dalildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. „Avicenna | Persian philosopher and scientist— (https: www.britannica.com/biography/Avicenna),Encyclopedia Britannica (inglizcha)
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005-yil)
3. Petrov V.D. Ibn Sina – velikiy sredneaziatskiy uchyonyy ensiklopedist.
4. Abu ali ibn Sina. Kanon vrachebnoy nauki. Tashkent. –1981.
5. Abu Ali Ibn Sino. —Al-ishorat va at-tanbihotl (Nasriddin at-Tusiy sharhi) Qohira1365. – 338 b.